



YUNON BAQTRIYA DAVLATI: SOVET DAVRI TARIXSHUNOSLIGIDA

Toirova Gulbegim Toshnazar qizi

Jumanova Kamola Ashur qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Tarix yo'nalishi 1.24-guruh talabalari

Abstract: This article provides information about the formation and rise of one of the ancient civilizations, the Greco-Bactrian state, including its history, geographical position, natural conditions, social structure, culture, rulers, disintegration, and collapse.

Key words: Diodotus I, II, Euthydemus I, II, Demetrius, province (satrapy), Parthia, Bactria.

Annotatsiya: Ushbu maqolada qadimiy sivilizatsiyalardan biri bo'lgan Yunon-Baqtriya davlatining tashkil topishi va kuchayishi, tarixi, geografik o'rni, tabiiy sharoiti, ijtimoiy tuzumi, madaniyati, hukmdorlari, parchalanishi va qulashi haqida ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: Diodot I, II, Evtidem I, II, Demetriy, viloyat (satraplik), Parfiya, Baqtriya.

Аннотация: В данной статье представлена информация о возникновении и расцвете одной из древнейших цивилизаций – Греко-Бактрийского государства, включая его историю, географическое положение, природные условия, социальный строй, культуру, правителей, распад и падение.

Ключевые слова: Диодот I, II, Евтидем I, II, Деметрий, провинция (сатрапия), Парфия, Бактрия.



KIRISH: Ilk davlatchilik bosqichiga o'tish davrida O'rta Osiyo mintaqasida Parfiya, Sug'd va Xorazm kabi davlatlar tarkib topayotgan edi. Xususan, shulardan biri Yunon-Baqtriya davlati edi. Yunon-Baqtriya Qadimgi Sharqda qisqagina umr ko'rgan davlatlardan biri bo'lgan. U kuchaygan davrda unga O'rta Osiyoning janubiy, janubi-sharqiy qismi, hozirgi Afg'oniston va Hindistonning shim oli-g'arbiy hududlari kirgan. Yer yuzasi tog'lik va tekisliklardan iborat bo'lib katta qismini Oloy, Pomir va Hindikush tog'lari egallab yotadi. Yunon-Baqtriya suv manbalariga boy, mamlakat hududidan Oks-Amudaiyo va uning hamma irmoqlari oqib o'tadi. U o'simlik va hayvonot dunyosiga ham boy bo'lgan. Yunon-Baqtriya oltin, kumush, mis, temir va qimmatbaho toshlari bilan qadimdan mashhur. Baqtriva insoniyat madaniyatining beshiklaridan biri hisoblanadi. Bu o'lkada sakkiz yuz - bir million yildan beri odamlar yashab keladilar. Keyinchalik bu yerda baqtriyahklar, so'g'diylar, eroniylar, yunon-makedonlar, hindlar, sak va tohar qabilalari yashaganlar. Bu oikaning qulay tabiiy sharoiti atrofda yashagan qabilalar e'tiborini hamisha o'ziga tortib kelgan.[1]

Yozma va arxeologik manbalar qadimgi Baqtriya dastlabki shaharlar rivojlanishi jarayonini aniqlash imkonini beradi. Ktesiyning ta'kidlashicha, Baqtriyaning markazi Baqtriya shahri bo'lgan. Baqtriyaning boshqa markazlari Qiziltepa, Oltindiortepa, Boytudasht, asosan ayrim viloyatlarda harbiy ahamiyatga, hunarmandchilik va savdo-sotiq ahamiyatiga ega bo'lgan.[3]

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI. Ushbu mavzuni yoritishda A.Kabirovning "Qadimgi sharq tarixi" kitobida Yunon-Baqtriya podsholigining geografik o'rni, tabiiy sharoiti, aholisi, davlatning tashkil topishi, madaniyati haqida ko'plab muhim ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin. A.S.Sagdullayev "O'zbekiston tarixi" I kitobida Yunon-Baqtriya davlatining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlanishi, hukmdorlarning davlat boshqaruvi haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. R.Rajabovning "Qadimgi sharq tarixi" kitobida davlatning bir qancha satrapliklarga bo'linishi, uning



chegaralari haqida ma'lumotlar keltirilgan. A.Sagdullayevning yana bir kitobi "Qadimgi O'rta Osiyo tarixi" da Baqtriya shaharlari haqida ma'lumotlar keltirilganligini ko'rishimiz mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Manbashunoslik, matnshunoslik, tahliliy, taqqoslash.

TAHLIL VA NATIJALAR. Makedoniyalik Aleksandr vafotidan so'ng u tuzgan saltanat bir necha katta-kichik davlatlarga bo'linib ketgan. Ularning biri Salavkiylar davlati edi. Bu davlatning hukmdori Salavka I Nikator bo'lib. O'rtayer dengizining sharqiy sohilidan O'rta Osiyo va Hindiston chegaralarigacha bo'lgan yerlar Salavka davlati tarkibiga kirgan. Salavka vafot etgach (m.av. 280 y), uning vorislari davrida sharqiy viloyatlarda qo'zg'olonlar boshlanadi. Bundan salavkiylarning Baqtriyadagi noibi Diodot ham foydalanadi. U mahalliy zodagonlarning xayrixohligiga tayanib m. av. 250-yilda o'ziri Baqtriya podshosi deb e'lon qiladi. Davlat ishlariga yunonlar va mahalliy baqtrivalik zodagonlar jalb qilinganligi uchun bu davlat Yunon-Baqtriya podsholigi deb ataldi. Bu davlatning asosi dastlabki Baqtriya bo'lgan, uning poytaxti Shimoliy Afg'onistondagi Zariasp edi. Keyinchalik bu shahar Baqtr nomi bilan mashhur bo'lib ketgan, hozirgi nomi Balxdir. Diodot I va Diodot II lar davrida Yunon-Baqtriya yerlari So'g'diyona, Marg'iyona, Choch, Davon. Sharqiy Eron hisobiga kengayadi. M. av. 230-yili So'g'diyona noibi Evtidem I qo'shinlari Diodot II qo'shiniarini yengib Baqtriya taxtini egallaydi M.av. 208-206-yillarda Salavka podshosi Antiox III bilan Evtidem I o'rtasidagi ikki yilga cho'zilgan urush sulh bilan tugaydi. Antiox III Evtidemning hukumronligini tan olishga majbur bo'ladi. Chunki shu davrda shimoldan ko'chm anchi qabilalar xavf solib turgan edi. Evtidem I va uning o'g'li Demetriy davrida Yunon-Baqtriya kuchayib Seyistondan Hind daryosigacha bo'lgan yerlari Yunon-Baqtriya podsholigiga qo'shib olinadi.[1]

Yunon-Baqtriya davlatining salavkiylardan ajralib chiqishi yunon zodagonlarining qo'zg'oloni xususiyatiga ega bo'lib, unga Baqtriya aholisi tomonidan qo'llab-quvvatlangan



Diodot boshchilik qiladi. Tadqiqotchilar Yunon-Baqtriya davlati paydo bo'lgan turli sanalarni belgilashadi (mil. avv. 250-248-yy.). Bu davlatning asosi Baqtriya bo'lib, ba'zi hukmdorlar davrida (Evtidem, Demetriy, Evkratid) Hindistonning shimoli-g'arbiy qismi, Amudaryo va Sirdaryo o'rtasidagi katta yerlar qo'shib olinadi. Baqtriyaning Salavkiylar davlatidan ajralib chiqishi xususida rimlik tarixchilar Pompey Trog va Yustinda uzoq-yuluq ma'lumotlar saqlangan bo'lsa-da, bu haqda batafsil ma'lumotlar uchramaydi. Shunga qaramasdan mavjud tangashunoslik, ayrim xo'jalik hujjatlari, san'at yodgorliklari, sug'orish inshootlari va imoratlar qoldiqlari bergan ma'lumotlar asosida bu davlatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot haqida ma'lum tasavvurlarga ega bo'lish mumkin. Ammo, Yunon-Baqtriya davlatining siyosiy tarixi ko'p hollarda qiyosiy solishtirish va taxminlarga asoslanadi. Yunon-Baqtriyada davlat podsho tomonidan boshqarilgan bo'lib, tangashunoslik ma'lumotlari Diodot I, II, III, Evtidem I, II, Demetriy, Geliokl, Platon kabi podsholari haqida xabar beradi. Salavkiylar kabi Yunon-Baqtriya podsholari ham davlatni satrapliklarga bo'lib idora etishgan.[2]

Yunon-Baqtriya o'sha zamonning quldorlik davlatlaridan biri bo'lgan. Davlat tepasida podsho turgan. Podsholik taxti boshqa sharq davlatlari kabi otadan o'g'ilga meros bo'lib o'tgan. Podsholik mulklari viloyatlarga bo'linib, uni viloyat hokimlari-gipparxlar boshqargan. Gipparxlar esa to'g'ridan-to'g'ri podshoga itoat etgan. Podsholikning Yunon-Baqtriya qismida urug'i Hindistondan keltirilgan paxta ham ekilgan. Ehtimol ipak qurti ham boqilgandir. Podsholikda qo'y, echki, qoramol, ot, tuya, qo'tos, o'rgatilgan fil, it va parranda boqqanlar. Yunon-Baqtriya otlari va tuyalari juda mashhur bo'lgan. Boshqa joylarga qaraganda Yunon-Baqtriyada shaharlar ko'p bo'lgan. Shuning uchun qadimgi tarixchilar Pompey va Apolloderlar Yunon-Baqtriyaning "ming shaharlar mamlakati", deb bejiz aytishmagan. Eng yirik shaharlar Baqtra, Termiz. Evkratideya, Demetriya, Aleksandriya va boshqalar bo'lgan. Bu shaharlarda hunarmandchilik va savdo-sotiq rivoj topgan. Yunon-Baqtriyada savdo-sotiq ham juda rivojlangan edi. Davlat shimoldan



janubga, sharqdan g'arbga boradigan karvon yo'lining qoq o'rtasida joylashgani savdo-sotiqning rivojlanishiga imkon bergan. Yunon-Baqtriya savdogarlari va podsholari Hindiston, Xitoy, Parfiya davlatlari. Oks va Yaksart bo'yi xalqlari bilan savdo, iqtisodiy va madaniy aloqalar olib borganlar. Yunon-Baqtriya savdogarlari Buyuk Ipak yo'li tarmoqlaridan savdo-sotiq ishlarida unumli foydalangan. Mamlakat podsholari savdoda qo'llaniladigan oltin va kumush tangalar chiqarganlar. Yunon-Baqtriya madaniyatining ildizlari uzoq o'tm ishga borib taqaladi. Buni biz m.av. X-V mingyilliklarga mansub Zarautsoy, Pomirdagi Kurtakasoyning shaxta g'ori devorlari, shiplariga oxra bo'yog'i bilan chizilgan qoyatosh rasmlari va qadimiy yodgorliklar misolida ham ko'rishimiz mumkin.[3]

Yunon-Baqtriyada yunon va mahalliy baqtr madaniyatining aralashuvi natijasida ellin madaniyati vujudga kelgan. Haykaltaroshlik, rassomchilik va naqqoshlik kabi tasviriy san'at ham rivoj topgan. Bu yerda hindlarning buddizm, zardushtiylik va yunonlarning ko'p xudolik dinlari aralashib ketgan edi. Yunon-Baqtriya davlati vuz yildan ziyodroq yashadi. Lekin u yerda yashagan xalqlar yuksak madaniyat yaratib, qo'shni xalqlar madaniyatiga barakali ta'sir ko'rsatgan. Bu madaniyatning rivojida O'rta Osiyo xususan o'zbek xalqi bobokalonlarining ham katta xizmatlari bor. [4]

Yunon –Baqtriya podsholigi sak qabilalari (asiylar, pasinlar, sakaravllar), so'ngra xunlarning zulumi bilan Baqtriyaga kelgan yuechji-toxarlarining zarbalari ostida qulaydi. Yuechji-toxarlar dastlab Shimoliy Baqtriyaga (O'zbekistonning hozirgi Surxondaryo viloyati va Shimoliy Tojikiston) joylashadilar, so'ngra esa Baqtrada (hozirgi Shimoliy Afg'onistondagi Balx) poytaxtga asos solib butun Baqtriyani bosib oladi. Ular alohida mustaqil mulklardan iborat bo'lgan o'ziga xos konfederativ tipdagi davlat barpo etadilar.[5]

XULOSA. Xulosa qilib aytganda Yunon-Baqtriya davlati qisqa muddat hukmronlik qilgan bo'lsada o'z taraqqiyotining cho'qqisiga erishgan, sharq va g'arb madaniyatining o'zaro uyg'unlashuvi natijasida o'ziga xos madaniyat darajasiga ko'tarilishi, ya'ni Aleksandr Makedonskiy yurishlari natijasida keng miqyosda boshlangan ellinizm



madaniyatining kirib kelishi Baqtriya, Parfiya va Sug'diyona shaharlari, hunarmandchiligi va badiiy-amaliy san'atiga katta ta'sir ko'rsatganligini aytishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.Kabirov "Qadimgi sharq tarixi" Toshkent 2016.
2. A.S.Sagdullayev "O'zbekiston tarixi" I kitob Toshkent 2021.
3. A.Sagdullayev "Qadimgi O'rta Osiyo tarixi" Toshkent 2004.
4. A.Sagdullayev, A.Mavlonov "O'zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi" Toshkent "Akademiya" 2006.
5. E.Rtveladze, A.Saidov, Ye.Abdullayev "Qadimgi O'zbekiston sivilizatsiyasi" Toshkent "Adolat" 2001.
6. Begaliyev, N. X. (2023). THE PROBLEM OF TERMINOLGY IN ETHNOLOGY IN ETHNOLOGICAL RESEARCH. *Oriental Journal of Social Sciences*, 69-72.
7. Begaliyev, N., & Nosirova, K. S. (2024). BOBUR VA BOBURIYLAR DAVRIDA ME'MORCHILIK SOHASINING YUKSALISHI. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 538-546.
8. Бегалиев, Н. (2024). БУХОРО–ҚАРШИ САВДО ЙЎЛИДА ЖОЙЛАШГАН САРДОБАЛАР. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 141-144.
9. Begaliyev, N., Xumoyun, A., & Shahlo, S. (2024). RTA OSIYO GIDROTEXNIKA INSHOOTLAR TARIXI SARDOBA VA KORIZLAR MISOLIDA. *UNIVERSAL JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES*, 2(9), 57-62.
10. Nurbek, B., & Ruxshona, A. (2023). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XITOIY BILAN DIPLOMATIK MUNOSABATLAR. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 11(10), 25-29.
11. Begaliyev, N., & Qizi, M. R. S. (2024). AMIR TEMUR DAVRIDA TANGA PUL MUNOSABATLARI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 35(1), 204-207.



12. Normamatova, M. (2024). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA BUYUK IPAK YO 'LIDAGI DAVLATLARARO ALOQALAR. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 180-184.
13. Begaliev, N. (2024). THE HISTORY OF THE SARDOBAS: ON THE EXAMPLE OF THE BUKHARA KHANATE. *TAMADDUN NURI JURNALI*, 11(62), 268-270.
14. Baratov, K. (2024). SOME CONSIDERATIONS WITHIN THE CLASSIFICATION OF SOURCES ON THE HISTORY OF NAXHAB. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 11(03).
15. Azamova S. EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – T. 1. – №. 1.
16. Azamova S. UMUMTA'LIM MAKTAB O 'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING USUL VA VOSITALARI //Interpretation and researches. – 2024.
17. Azamova S. A. PROBLEMS OF FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 743-749.